

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SATTOROVA SHALOLA BOBIR QIZI

MIRZO BEDIL FALSAFASIDA OLAM VA ODAM MUNOSABATLARI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Sattorova Shalola Bobir qizi

Mirzo Bedil falsafasida olam va odam munosabatlari5

Саттарова Шалола Бобир кизи

Отношения вселенной и человека в философии Мирзо Бедиля21

Sattarova Shalola Bobir kizi

Relations between universe and man in the philosophy of Mirzo Bedil41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SATTOROVA SHALOLA BOBIR QIZI

MIRZO BEDIL FALSAFASIDA OLAM VA ODAM MUNOSABATLARI

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal952 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Huseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Amriddinova Dilrabo Tursunovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Raxmatova Xolidaxon Xoliqovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “27” sentyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (496 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “13” sentyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil “13” sentyabr dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqaro hamkorlikning universal prinsip va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotgani, o‘zaro ishonchning chuqur tanazzulga yuz tutayotgani, turli nuqtalarida davom etayotgan qurolli mojarolar insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan qadriyatlarning yemirilishiga olib kelib, konstruktiv muloqot va ko‘p tomonlama samarali hamkorlikni barqarorlik va taraqqiyot shartiga aylantirmoqda. Buyuk ajdodlar tomonidan qoldirilgan ma‘naviy me‘ros pokiza iymon va e‘tiqod, insonparvarlik, yurtsevarlik, adolat, shafqat va muhabbat, o‘zgaralar dardi bilan yashash singari ezgu tushuncha va tuyg‘ularning ildiz otishida alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun Mirzo Bedil falsafiy qarashlaridagi ruh va materiyaning o‘zaro munosabatini aniqlash, borliqni ratsional va irratsional anglash, inson qadrini ulug‘lash, ruhiyatini kamol toptirishga oid g‘oyalarining falsafiy-tarixiy ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida Sharq xalqlari diniy-falsafiy merosining ijtimoiy mohiyatini aniqlash va uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining ilm-fan, ma‘rifat, insonparvarlik haqidagi olijanob g‘oyalari fan, ta‘lim va madaniyat va jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirishda, ayniqsa, yosh avlod ongida vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi, fanda yaratgan yangi yo‘l – “Sabki Bedil”ning o‘ziga xos xususiyatlari, borliq va moddiy dunyo paydo bo‘lishi haqida mulohazalarini tahlil etish, insonning materiyada tutgan o‘rni, emanatsiya jarayoni, tinchlikparvarlik tamoyillari va konsensus muhitiga oid qarashlarini, insonning tabiat bilan uyg‘unlashuviga doir g‘oyalarining falsafiy jihatlarini ilmiy-tarixiy manbalar asosida tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, ta‘lim, ilm-fan, ma‘rifat va ma‘naviyatni rivojlantirish, ma‘naviy, axloqiy tamoyillarga e‘tibor qaratish, yoshlarda bilimga intilish, o‘z-o‘zini takomillashtirish zarurligini singdirishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma‘naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur”¹. Mirzo Abdulqodir Bedilning inson kamolotiga oid g‘oyalari, gumanistik mohiyatga ega oilaviy tarbiya, bunyodkorlik, axloqiy tarbiya, do‘stlik haqidagi qarashlari ma‘naviy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida Yangi O‘zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan ma‘naviy madaniyatni rivojlantirish va undan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish diniy va dunyoviy bilimlar mutanosibligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 225.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-sonli “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy merosini o‘rganishda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida o‘rin tutadi. Mirzo Abdulqodir Bedilning falsafiy-ma‘naviy faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish, eng avvalo, hind va musulmon madaniyatlarining o‘zaro ta‘sirini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Jumladan, Abdurauf Fitratning “Mirzo Abdulqodir Bedil” asarida Bedilning hayoti tadqiq etilib, ilmiy-irfoniy qarashlari, she‘riyatdagi o‘ziga xos badiiy uslub bayon etilgan. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodini o‘rganish uning zamondoshlari tomonidan informativ ravishda o‘rganilgan. U haqida birinchi ma‘lumotlar “Mir‘ot ul xayol”, Sherxon Ludining “Safinan Bexabar” (Mir Azamat Bexabar) va boshqa tazkirotlarda, G‘ulomali Balgiramining “Sarvi Ozod” tazkirotida uchraydi. Afzal Sarxushning tazkirasida buyuk mutafakkir, murossasiz shoir sifatida ko‘rsatilgan. Mirzo Bedil zamondoshlarining ayrim tazkiralari, shuningdek, Bedil asarlari yoki falsafiy ta‘limoti keyingi yilnomalarda alohida batafsil yoritilgan bo‘lib, uning ma‘naviy merosi Mirzo Abdulqodir Bedil hayotligida ko‘pgina zamondoshlari e‘tiborini tortganidan dalolat beradi. Taniqli hind yozuvchisi Xushgu Mirzo Abdulqodir Bedilning suhbatdoshi bo‘lish baxtiga

muyassar bo‘lgan. Uning “Xushgu ontologiyasi” (yoki “Safinat-ush-shuaro”) asarida Mirzo Abdulqodir Bedil to‘g‘risida foydali ma’lumotlar mavjud².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan Ye.Bertels, A.Bauzani Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi va falsafiy qarashlariga doir o‘rganishlarini o‘z asarlarida qayd etishgan. Eduard Braun “Eron adabiyoti tarixi”da Bedilni yirik olim, nafaqat faylasuf balki, tabiatshunoslik, tibbiyot, tarix, matematika, musiqadan yaxshi xabardor hamda kuchli xotiraga ega inson sifatida ta’rif beradi. Said Nurulhak Kavashning “Mirzo Abdulqodir Bedil devonlari ko‘zgisida zohidlik asoslari” kitobi Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasini o‘rganishda o‘ta muhim tadqiqotdir. Shuningdek u “Mirzo Abdulqodir Bedil antropologiyasi” deb nomlangan 3 jildli kitobini yozadi. Mirzo Abdulqodir Bedilning hayoti va ijodi, ma’naviy merosi, falsafiy qarashlari K.Olimov, N.Sadikova tomonidan o‘rganilgan³.

Jadid mutafakkirlari, Ahmad Donish, Sadridin Ayniy kabi olimlar Mirzo Abdulqodir Bedil haqida, uning ijodini tarix va falsafadagi ahamiyatini ta’kidlashgan. Sadridin Ayniyning “Mirzo Abdulqodir Bedil” monografiyasi katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Taniqli o‘zbek faylasuf olimi, akademik Ibrohim Mo‘minovning “Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” deb nomlangan monografiyalarida buyuk mutafakkir she’riyat dahosi sifatida ulug‘lanadi⁴.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi davrga qadar Mirzo Abdulqodir Bedilning bir turkum g‘azal va ruboiylarini Nazarmat, Sh.Shomuhamedov, J.Kamol va Matnazar Abdulhakim kabi adiblar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Bedil Xuroson va Movarunnahrda sevimli shoirlardan biri bo‘lganligi va keyingi davr adiblari ijodiga yetkazgan ta’siri kabi masalalar Sh.Shukurov, N.Komilov, X.Boltaboyev, R.Vohidov, E.Ochilov kabi olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Shavkat Shukurovning “Bedil lirikasi” nomli tadqiqot ishida Bedilning dadilligi, yuksak hind uslubi adabiy doiralarni o‘ziga rom etib, musiqa (ayniqsa, “Shashmaqom” bezavoli) bilan mashhur bo‘lib har bir xonadonda o‘z o‘rnini topganligi va lirikasining o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratgan⁵.

² Фитрат. Мирзо Бедил. - Тошкент: А.Қодирий номид.халқ мероси, 1996. - 140 б.; Миръот-ул-хаёл. / Э. Ахрорӣ, С. Асадуллоев // Лениннома. -Душанбе: Муҳит. СИЭСТ, 1983. — (Энциклопедияи Советии Тоҷик : [дар 8 ҷ.] / сармуҳаррир А. С. Сайфуллоев ; 1978—1988, ҷ. 4.); Садыкова Н. Н. Взаимовлияние индийской и таджикской культур на примере творчества Мирзо Абдулкодира Бедилы //Евразийский юридический журнал. – 2016. – №. 1. – С. 392-395.; Одинаев О. Н. Описание рукописи диван Бедила в библиотеках мира //Вестник Педагогического университета. – 2020. – №. 3 (86). – С. 220-228.;

³ Бертельс Е.Э. Избранные труды Гаффорова Замира. Антологии Сархуш и Хушгу как источники литературной критики. – Худжанд: Нури маърифат, 2001. -280 с., История литературы и культуры Ирана.- Москва: Наука, 1988. 544 с.; А.Баузани. Взгляды одного Европейца на Бедилу.Тридцать статей о Бедиле. - Москва: Наука, 1972. -С.235; Е.Браун. A literary history of Persian. By Edward C.Browne, vol IY, Cambridge at the University Press, 1930. –Р. 45-52.; Доктор Сайд Нурулхак Ковши. Оини зохид дар оинаи девони Бедиль. Нима Верлаг. Германия. 2002. 247 с.; Олимов К.О. Баррасихо дар тасаввуф. –Душанбе: 1999. - С. 97-122; Садикова Н.Н. Философская антропология Бедила: дис. кандидат философских наук: 09.00.03 - История философии. Душанбе: 2000. - 164 с.

⁴ Айни Х.С. Бедиль и его поэма Ирфон. - Сталинабад : Таджикгосиздат, 1956. · 127 с.; Мўминов И. Мирза Бедилнинг фалсафий қарашлари. -Тошкент, Ўзбекистон, 1957 . 135 б.

⁵ Мирзо Абдулкодир Бедил. Комде ва Модан Назармат таржимаси. - Тошкент: 1960; Мирзо Абдулкодир Бедил. Рубойилар Ш.Шомухамедов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Мирзо Абдулкодир Бедил. Рубойилар Ж.Камол таржимаси. –Тошкент: 1991; Шукуров Ш. Мирзо Абдулкодир Бедилнинг поэтик мероси. -Тошкент: Фан, 1989; Шукуров Ш. Поэтическое наследие Мирзо Бедила.1. Ташкент, 1979,- 128с; Шукуров Ш.Жанровые и идейно-художественные особенности лирики Бедилы. Дисс. д-ра филолог, наук. –

Mirzo Abdulqodir Bedil ta'limoti M.Abdullayeva, O.Muhammadiyeva va J.Xolmo'minov kabi faylasuflar tomonidan o'rganilgan. O.Muhammadiyeva "Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida axloqiy qadriyatlar masalasi" mavzuidagi tadqiqotida asosan Mirzo Bedil falsafasida axloqiy tushunchalar talqini hamda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasida komil inson g'oyasining o'rni va ahamiyati masalalari o'rgangan. Shuningdek, Ja'far Xolmo'minovning "Mirzo Abdulqodir Bedil hayoti va falsafiy qarashlari haqida chizgilar" maqolasida mashhur olimning "Bedil ikki do'st davlat – O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi tarixiy va ma'naviy bo'g'indir va xalqlarimiz xavfsizligi, barqarorligi, taraqqiyoti va farovonligini ta'minlash yo'lidagi har tomonlama do'stligimiz va hamkorligimiz uning buyuk maslahatidir"⁶ degan fikrni bildirgan.

Mazkur tadqiqotlar mavzuni tadqiq etishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Yuqorida amalga oshirilgan ishlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodiyoti atroflicha o'rganilgan. Biroq, Mirzo Abdulqodir Bedil asarlaridagi borliq, inson muammosiga oid falsafiy g'oyalarini tahlil etish, falsafiy dunyoqarashining manbalarini aniqlash masalalari tadqiq etilmagan. Demak, belgilangan muammo doirasida tadqiqotning keng qamrovli zamonaviy yondashuvlar asosida Bedilning tasavvufiy-irfoniy hamda ontologik masalalariga e'tibor qaratib, olam va odam munosabatlarini tadqiq etilishi ilmiy-nazariy ahamiyatga molik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mirzo Bedilning olam va odam munosabatlariga oid qarashlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XVII asr ijtimoiy-madaniy hayotining shart-sharoitlari va uning Bedil qarashlarining shakllanishiga ta'sirini aniqlash;

Mirzo Abdulqodir Bedil dunyoqarashining falsafiy ildizlari va mafkuraviy manbalarini tadqiq etish;

Душанбе: 1985. - 160 с.; Комилов Р.С. Назарияи чомеаи ормони дар таърихи фарханги форсу тоҷик. - Душанбе, 1997. - 288с.; Шукуров Ш. Мирзо Бедилнинг поэтик мероси – Тошкент: Фан, 1989; Нажмиддин Комилов. Ирфон нури // Тафаккур, - 2006, №2, Б-68-73; Ирфон нури Абдулмаоний. / "Бедил ўзбек маънавияти" мавзuidaги халқаро анжуман материаллари – Тошкент: Моварауннаҳр, 2005, Б. 3-18; Ҳамидулла Болтабоев "Кўнгил китобидан анланган фикрлар" ёки Бедилни Фитратона тушуниш. // Фитрат, Бедил(Бир мажлиса. –Тошкент: 1996; Раҳим Воҳидов Теран тафаккурга йўғрилган шеърият. // "Бедил ва ўзбек маънавияти" мавзuidaги халқаро анжуман материаллари. –Тошкент: Моварауннаҳр, 2005, - Б.-59-74; Эргаш Очилов Ғафур Ғулом ва Мирзо Бедил. // "Бедил ўзбек маънавияти" мавзuidaги халқаро анжуман материаллари. –Тошкент: Моварауннаҳр, 2005. - Б.-92-102;

⁶ Абдуллаева М. Иброҳим Мўминов-Бедилнинг ижтимоий-фалсафий фикрлари тадқиқотчиси; Муҳаммадиева О. "Мирзо Абдулқодир Бедил фалсафасида ахлоқий қадриятлар масаласи". Дисс. фал. фан. ном. 2008, 158 б.; Муҳаммадиева О. Бедил ва ахлоқий қадриятлар фалсафаси. Монография – Тошкент, Янги нашр, 2016, 168 бет; Холмўминов Ж. Абулмаоний маънавияти Бедил ҳаёти ва фалсафий қарашларига чизгилар. <https://www.researchgate.net/publication/337655789>

mutafakkir qarashlarida olam va uning kelib chiqishi haqidagi g'oyalarning falsafiy ahamiyatini asoslab berish;

Bedilning falsafiy dunyoqarashida borliq muammosining tahlili va tasavvufiy-irfoniy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

allomaning antropologik qarashlarini tavsiflash hamda uning an'anaviy falsafiy nazariyalar bilan uyg'unligini tadqiq etish;

Mirzo Bedil ijtimoiy-falsafiy g'oyalarning komil insonni tarbiyalashdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Mirzo Abdulqodir Bedilning ilmiy merosi, shuningdek, alloma haqidagi tadqiqotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Abdulqodir Bedil asarlaridagi ontologik qarashlar, ilohiyot va adabiyot masalalari, olam va odam munosabatlariga oid g'oyalari hamda axloqiy o'gitlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, sinergetik va funksional tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mirzo Abdulqodir Bedilning "Debocha", "Nuqot" va "Ruqa'ot" asarlaridagi so'fiyona, axloqiy estetik qarashlari tasavvuf nazariyasidagi "vahdati vujud" ta'limotiga asoslanganligi hamda ontologik masalalarda ruhiy olamning moddiy olamga munosabati, baqo va fano, borliq va yo'qlik kabi dialektik munosabatlar ustuvorligi falsafiy ochib berilgan;

mutafakkirning "Muhiti a'zam", "Ma'rifat to'ri" va "Hayrat tilsimi" masnaviylaridagi antropologik qarashlarida tanosux nazariyasi va tavakkul ta'limotining tanqid qilinganligi hamda komil inson tushunchasining ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik tamoyillari bosh g'oya sifatida ulug'langanligi asoslab berilgan;

Mirzo Bedil falsafiy dunyoqarashi islom, so'fiylik, antik dunyo va qadimgi hind falsafasiga asoslanganligi, ijtimoiy qarashlarining gumanistik mohiyatida oilaviy tarbiya, bunyodkorlik, axloqiy tarbiya, do'stlik omili ustuvorligi aniqlashtirilgan;

allomaning "Irfon" dostonidagi antropologik qarashlarida aql va ilm omili, inson qadrini ratsional tamoyillar asosida yuksaltirish, do'stlik, karamlilik, adolat kabi mezonlar va jamiyat taraqqiyotida ta'lim, axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarning yoshlarni ma'naviy kamol topttirish hamda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Bedil qarashlarida borliqning murakkab masalalari, ruh va materiyaning o'zaro munosabati muammolari vujudi vojib va vujudi mumkin nazariyasi asosida tadqiq etilganligi asoslab berilgan;

Mirzo Abdulqodir Bedilning olam va odam munosabatlari haqidagi qarashlariga Sharq peripatetiklarining g'oyalari ijobiy ta'sir qilganligi hamda gnoseologik qarashlarida olamni anglashning tashqi sezgilar (shoma, binoi, soika, shu'nidani, lomisa), jonli mushohada, aql ne'mati bosqichlari asoslanganligi ochib berilgan;

mutafakkir ontologik nazariyasida narsalarning vujudga kelishi zaruriyat ekanligi, o'zgarishlar davomiyligi, yangi sifat bosqichi vujudga kelishi, ruhning ko'chishi, absolyut haqiqat mavjudligi kabi falsafiy muammolar ilohiyot va adabiyot sinkretikligi asosida ochib berilganligi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha defitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Yangi O'zbekiston sharoitida bag'rikenglik, sabrlik, shukronalik fazilatlarining barkamol inson tarbiyasidagi nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishda, Sharq falsafasi xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, jamiyat taraqqiyotida ma'rifatparvarlik, ta'lim va axloqning rolini asoslash bilan shug'ullanadigan falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning ilmiy-nazariy asoslarini yanada boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Mirzo Bedil ma'naviy merosining falsafiy tahliliga oid qarashlardan inson manfaatlarini himoya qilish, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish, xalq bilan davlat munosabatlarini xalqparvar davlat tamoyillariga moslashtirish, yoshlarni axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalashda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi nodavlat-notijorat tashkilotlar va mahallalar faoliyatlarida, shuningdek, ta'lim tizimida o'qitiladigan "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" fanlarning mazmunini boyitishda va ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mirzo Abdulqodir Bedil falsafiy qarashlaridagi olam va odam munosabatlariga oid g'oyalarni tahlil etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Mirzo Abdulqodir Bedilning "Debocha", "Nuqot" va "Ruqa'ot" asarlaridagi so'fiyona, axloqiy estetik qarashlari tasavvuf nazariyasidagi "vahdati vujud" ta'limotiga asoslanganligi hamda ontologik masalalarda ruhiy olamning moddiy olamga munosabati, baqo va fano, borliq va yo'qlik kabi dialektik munosabatlar ustuvorligiga oid ilmiy xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining Ilmiy ekspert Kengashi tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlarning dunyoqarashni shakllantirishga oid risolalarda va qo'llanmalarni tayyorlashda tarqatma material sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2023-yil 18-

sentabrdagi 04-12/185 son ma'lumotnomasi). Natijada, Bedil falsafiy qarashlari qo'mitaning asosiy vazifalarida keltirilgan ilmiy o'rganish asosida olingan ilmiy ma'lumotlar va ularning tahliliy natijalariga oid bibliografik top'lamlar, kataloglar, kitob-albomlar, axborot byulletenlari va boshqa matbaa mahsulotlarini turli tillarda nashr etish, ommaviy axborot vositalari va Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga xizmat qilgan;

mutafakkirning "Muhiti a'zam", "Ma'rifat to'ri" va "Hayrat tilsimi" masnaviylaridagi antropologik qarashlarida tanosux nazariyasi va tavakkul ta'limotining tanqid qilinganligi hamda komil inson tushunchasining ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik tamoyillari bosh g'oya sifatida ulug'langanligiga doir nazariy umumlashma va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-son "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish" (2021-2022 yy) amaliy loyihasining "Diniy va milliy qadriyatlar tadqiqotining yangi ilmiy paradigma va metodologiyasi"ni yaratishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 9-oktabrdagi 04/11-6324-son ma'lumotnomasi). Natijada, Mirzo Bedilning hayoti va ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqishini ortishiga, yoshlarning ma'rifiy-madaniy va ilmiy salohiyatini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga hamda milliy va diniy qadriyatlar tarixiy-falsafiy, ilmiy an'analar va inson tarbiyasi kabi masalalar doirasida tahlillarni amalga oshirishga xizmat qilgan;

Mirzo Bedil falsafiy dunyoqarashi islom, so'fiylik, antik dunyo va qadimgi hind falsafasiga asoslanganligi, ijtimoiy qarashlarining gumanistik mohiyatida oilaviy tarbiya, bunyodkorlik, axloqiy tarbiya, do'stlik omili ustuvorligi kabi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 16-bandi "Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, boy ma'naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ'ib qilish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 6-noyabrdagi 02-22/1212-son ma'lumotnomasi). Natijada, Bedil ta'limotida olam va odam munosabatlar falsafasini nazariy va amaliy jihatdan tizimlashtirishga xizmat qilgan;

allomaning "Irfon" dostonidagi antropologik qarashlarida aql va ilm omili, inson qadrini ratsional tamoyillar asosida yuksaltirish, do'stlik, karamlilik, adolat kabi mezonlar va jamiyat taraqqiyotida ta'lim, axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarning yoshlarni ma'naviy kamol topttirish hamda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta'minlashdagi o'rniga oid xulosa va takliflardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Dolzarb mavzu", "Assalom Buxoro", "Til-millat kuzgusi", "Sakkizinchi mo'jiza" kabi ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlash va tadqiqotchi bilan bevosita surbat olib borishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-noyabrdagi 02/09-322-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh avlodni inson hayotini qadrlashga o'rgatish, bilim va ma'rifat, axloqiy fazilatlar ruhida

tarbiyalashning maqbul usullari haqidagi xulosalar teletomoshabinlarga ushbu masalalar yuzasidan kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini ta'minlashga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mirzo Abdulqodir Bedil falsafiy dunyoqarashini tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida XVII asr ijtimoiy-siyosiy hayoti va uning ijtimoiy-falsafiy tafakkurga ta'siri hamda Bedil falsafiy dunyoqarashining shakllanishi, mohiyati va falsafiy ildizlari kabi masalalar tahlil etilgan.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi adabiy-badiiy hamda madaniy-ma'naviy aloqalar ancha rivojlangan. Mazkur jarayonlarni tadqiq etgan tarixchi mutaxassislar ushbu davrlarni uch bosqichga bo'lib o'rganishni taklif etishadi. Bu davrda Hindistonda ijtimoiy-siyosiy fikr ko'p qirrali va murakkab edi. Hindiston xalqlarining ushbu madaniy jarayoni butun mamlakat uchun mumtoz merosni vujudga keltirdi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, hindiyzabon fors faylasufi, so'fiy va atoqli Sharq mutafakkiri sifatida tanilgan Abul Maoniy Mirzo Abdulqodir Bedil Dehlaviy (1644-1721 yy.) ning hayoti va ijodi shu davr va zamon bilan uyg'un holda kechgan.

Tadqiqotda mutafakkir yashagan tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti tahlil etilgan. Shoh Bobur mirzo 1526 – yilning aprel oyida Panipat yonida bo'lgan jangda Ibrohim Lo'diyni yengib, Agra va Dehlini egallaydi. Shu davrdan Hindistonda boburiylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. 1530-yil Bobur mirzo vafot etgach, dastlab Humoyun mirzo (1530-1556 yy.), keyin Akbarshoh

hukmronlik qiladi. 1605 yilda Akbar vafot etgach taxtni o'g'li Jahongirshoh (1605-1627 yy.) egallaydi. U otasi Akbar kabi mamlakat hududini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. Jahongirshoh 1614-yil Mevarni, 1615-yil Assomni va 1621-yil Kashmirdagi kichik Kishtvora navobligini bosib oladi. Bangola viloyatidagi afg'on qabilalarining g'alayonlarini bartaraf etib, ularni bo'ysundiradi⁷.

Dissertant fikricha, Bedil hayoti Hindistonda boburiylar sulolasining inqirozga yuz tutgan paytiga to'g'ri keladi va bunday vaziyatda hind va musulmonlarning o'zaro birlashuvi zarurligi haqida qayg'uradi. O'z-o'zidan ma'lumki, u o'zining falsafiy fikrlari va qarashlarini ochiq ayta olmas edi, shuning uchun ham o'z fikrlarini ramziy kinoyalarda orqali bayon etishga majbur edi. Shuning uchun ham uning qarashlari xalq ommasining barcha qatlamlariga teng tarzda etib bormagan. Uning ijtimoiy-falsafiy fikrlarini faqat ma'lum doiradagi donishmand kishilargina tushuna olishgan.

Tadqiqotda Bedil ijodi hindular va musulmonlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lida xizmat qilib kelayotgani aytiladi. Allomaning tasavvuf va adabiy shaxs sifatida kamol topishida, uning falsafa, tasavvuf ilmi, kalom, fiqh, hadis ilmi va tafsiri bilan jiddiy tanishishida ma'naviyatli va ilmli shaxs bo'lgan Mirzo Zarifning ta'siri katta bo'lgan.

Dissertant fikricha, Mirzo Zarif fazilatli inson bo'lib, fiqh, hadis va tasavvuf ilmidan dars bergan bo'lib, uning majlisiga Hindistonning Shoh Valiulloh Dehlaviy kabi shoir va so'fiylaridan Bedilning ma'naviy kamolotida ta'sir ko'rsatgan ba'zilar kelib-ketdilar⁸. Bir muddat muqaddam she'riyat bilan shug'ullanib, "Ramziy" taxallusi bilan ijod qila boshlagan Bedil u shoirlar orasida borligini e'lon qildi.

Bedil ko'p qirrali va o'ziga xos madaniyatning vakili bo'lib, uning ijodiyoti turli xil madaniyatlar sintezi bilan xarakterlanadi. "Hayrat tilsimi" asariga Bedilning boshqa asarlari kabi yuqori darajadagi kinoyalik va romantizm xos. Ushbu usul keyinchalik "Irfon" asarida, ayniqsa "Komde va Modan" syujetida ikki madaniyat sintezi rivojlantirilganligini ko'rish mumkin. Mazkur asarda musiqa va raqs san'ati alohida o'rin egallaydi. Syujet esa hind mifologiyasi tomonidan qabul qilingan. Alloma o'zining ilk she'rini o'n yoshida yozgan degan taxmin mavjud. U shoir va olimlar bilan suhbatlardan tashqari, buyuk fors bastakorlari she'riyatini ham o'rgangan va uning asarlari ularning ijodi bilan chuqur tanishligidan dalolat beradi. U dastlab Xuroson va Eron uslublariga moyil edi. Lekin Dehliga sayohat uni hind she'r yozish uslubiga o'tishga undadi.

Shayx Kamol o'z davrida Bedil dunyoqarashi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Shayx Kamol uni "azoi mxoni" usuli orqali odamlarni davolashga o'rgatgan. Bedil bu yo'l bilan kasallarni davolagan. Shayx Kamolning ta'siri ostida Bedil majzublar yo'lidan chetlashgan. "Chahor unsur"da yozilishicha, Shayx Kamol majzublarning axloqsiz fe'l atvoriga salbiy munosabatda bo'lgan. U

⁷ Qarang: Francis Gladwin. The History of Jahangir. –Madras: Manohar Publishers & Distributors (January 1, 2021), 1930. - P.61-70.

⁸ Qarang: Шахид, Амир Хан. "Смещение Шахского движения Шаха Валиуллы и его влияние на идеи мусульманского возрождения Северной Индии. // Журнал Исследовательского общества Пакистана 51.2 (2014).

haqiqatni anglash va inson axloqini rivojlantiradigan chuqur bilishni targ'ib qilgan. Bedil "Chahor unsur"da unga yaqin bo'lgan oltita majzublar haqida batafsil ma'lumot bergan. Har biri haqida alohida to'xtalib, Bedil ular bilan tanishish, uning dunyoqarashi shakllanishiga bo'lgan ta'siri haqida aytib o'tgan.

Dissertant fikricha, Bedilning falsafiy va nasriy asarlarida Ibn Arabiy tasavvufining alomatlarini ko'rish mumkin, bunga zamondoshlari ham ishora qilgan⁹. Uning asarlarida Ibn Arabiy *فصوص الحكم* "Fusus al-hikam"¹⁰ ning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Ibn Arabiyning e'tiqodi Bedilning otasi va amakisi mansub bo'lgan Hindiston so'fiylari orasida keng tarqalgan edi. Bu g'oyalar esa Bedilga ruhiy ustozlari orqali ta'sir ko'rsatdi. Uning ma'naviy ustozlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: ularning bir guruhi Shayx Kamol Qadriy, Shoh Qosim Xuvallohiy va Shoh Fadel kabilar Ibn Arabiyning ekzistensial birlik g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lsa, ikkinchi guruh Shoh Kabaliy, Shoh Moluk kabilardir va Hind tasavvufidan ko'proq ta'sirlangan.

Dissertatsiyada Bedil dunyoqarashi shakllanishining kelib chiqishini aniqlashda, bilvosita bo'lsa-da, zardushtiylikning ta'sirini qayd etmay bo'lmaydi, deya xulosa qilinadi. Zardushtiylik uning dunyoqarashiga bilvosita ta'sirini hind falsafiy tizimining oriylar ta'limoti bag'rida vujudga kelganligidan kelib chiqib xulosa qilish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mirzo Abdulqodir Bedilning ontologik ta'limoti**" deb nomlanib, unda borliq va Bedilning falsafiy tafakkuri va Bedil ta'limotida olam va uning kelib chiqishi hamda tasavvufiy-irfoniy qarashlari kabi masalalar tahlil etilgan.

Bedil ijodining markaziy masalalaridan biri insonning yer yuzidagi barcha jonzotlarga nisbatan ilgarilab borishidir. Bedil ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu masalani ko'rsatish va uning yechimida namoyon bo'ladi. Inson faoliyati sohasi ko'p qirrali bo'lgani uchun, inson dunyodagi eng murakkab mavjudot bo'lgani uchun Bedil ijodining mohiyatini anglash ham shunchalik qiyin. Albatta, Bedilning mavjud dunyo go'zalliklarini, manzaralarini tasvirlovchi, ayniqsa, bahor fasli, osmon jismlari va hokazolarni tasvirlovchi g'oyalari ham bor.

Dissertant fikricha, Bedil o'zining tasavvufiy mulohazalarida olamni Alloh taoloning zuhurlarini aks ettiruvchi ko'zgu, olamdagi barcha maxluqotlar esa uning bir ko'rinishi, "Ko'plik – birlikning tushishi, birlik – yuksalish"¹¹ deb qaraydi. Aynan shu yerda, Ibn Arabiy fikrlaridan kelib chiqqan borliq birligi Bedil tafakkurida hind falsafiy marosimlari bilan bog'liq fikrlar bilan qorishib ketgan. Uning fikricha, dunyoning mohiyatidan nafaqat hayvon va o'simliklar, balki jonsiz narsalar ham bahramand bo'ladi, lekin ular orasida inson alohida ulug'vorlik va ajoyib mavqega ega. Chunki u Allohning yerdagi xalifasigina emas, balki kichik bir dunyo va Allohning eng yaxshi zuhuridir.

⁹ Хошгу, Бандар бин Дас, Сафина, том 1, стр. 115, - Патна, 1959; Арзу, Али Хан, Маджмал Аль-Нафаис, т. 1, стр. 25, под редакцией Абидреза Бидара, Патна, 1992

¹⁰ Смирнов А. В. Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). Геммы мудрости. / Перевод В. А. Смирнова. - Изд.: Бейрут, 1980;. - М., 1993. -С.145-321.

¹¹ Бедил Мирзо Абдулқодир. Рубойилар // Шоислом Шомухамедов таржималари. - Тошкент, 1986, - Б.27

Tadqiqotda mutafakkir o'z falsafiy ta'limotida mutlaq borliq masalalariga to'xtalgani ta'kidlangan. Bedilning fikricha, dastlab mutlaq borliq mavjud bo'lib, bu borliq har qanday sifatlardan xoli bo'lgan. U o'zida va o'zi uchun edi, ya'ni uning nomi va sifati hali oshkor etilmagan edi. Bu davrda borliq va yo'qlik bir-biridan farq qilmas, ong hech narsaga bog'lanmagan. Agar Bedilning ba'zi ontologik nazariyalari haqida gapiradigan bo'lsak – dunyoning yangilanish nazariyasi – o'zgarishdan boshqa doimiy narsa yo'qligini bildiradi. Sezgi a'zolaringiz bilan kuzatayotgan, o'z muhitingizda ko'rgan, eshitgan, his qilayotgan dunyo har safar, har lahza o'zgarib turadi. Siz bitta obyektini ko'rasiz va keyingi soniyada u hech qachon bir xil bo'lmaydi. Ammo siz uni bir marta ko'rganingizdan so'ng, uni o'zingizning ichingizda, ichki tushunchangizda yutib yubordingiz, shunda u abadiy qoladi.

Dissertant fikricha, Bedil panteist bo'lib, Xudo va tabiatni aynan birdaydir, bir – biriga mos tushadi degan fikrda turgan. Bedil yashagan davrda “Vahdati vujud” va “Vahdati mavjud” kabi oqimlar bo'lgan. Bedilning fikricha, barcha borliq havodan tashkil topgan, u o'zining “Chor unsur” asarida substansiya – havodir deb tushuntiradi. Bedilning bu fikrlaridan ma'lumki, tevarak atrofdagi barcha turdagi predmet va hodisalar doimiy harakatda, rivojlanishda, aloqadorlikda bog'lanishdadir. Tabiat abadiy haqiqatdir, yani abadiy mavjuddir, uning ko'rinishlari, shakllari, xilma-xilligi ham o'zidadir. Olam sifat jihatdan bir me'yorda turmaydi, materiya shaklga egadir. Shaklsiz materiya – materiyasiz shakl bo'lmaydi. Materiya pardani ochmasa shakllar ifodalanmaydi¹².

Mutafakkir borliqni anglashning har qanday shakli nomukammal va shu sababli bizda ko'pgina savollarni vujudga keltiradi deb hisoblaydi. Uning fikricha, ma'naviy sohaning mazmun-mohiyati tabiatda mavjud bo'lganga emas, balki aql bilan anglash bo'ladiganga taalluqlidir. Shu bilan birga, Bedil falsafasida borliq qismlarga parchanaladigan mavjudlik haqidagi g'oyalar tizimi sifatida ko'riladi.

Tadqiqotda Hind falsafasi bilan yaxshi tanish bo'lgan Bedil qarashlari, ularning ayrim tushunchalari qarashlariga hamohang bo'lganligi ta'kidlangan. Ibn Sino fikricha, borliq vojbul vujud (zarur bo'lgan vujud), yani birinchi sabab Xudo, barcha ashyolarning ibtidosi va mumkinul vujud (bo'lishi mumkin bo'lgan vujud), ya'ni qolgan barcha narsalardan iboratdir. Vojbul vujud - o'z-o'zicha bor bo'lib, yagonadir. Mumkinul vujud (mumkin bo'lgan vujud) birinchi sababdan kelib chiqib, ayni vaqtda ko'plikdir, yani o'zida ko'p ashyolarning paydo bo'lish imkoniyatini sig'diradi. Shunday qilib, borliq bo'linmaydigan yagona va bo'linadigan ko'plikdan tashkil topgandir. Ko'plik darhol paydo bo'lmaydi, balki asta-sekin, sabab va oqibat shaklida namoyon bo'ladi.

Bedil nuqtai-nazaridan borliqning murakkab masalasini hal qilinishi ruh va materiyaning o'zaro munosabatini aniqlash bilan bog'liq. Shuni ham aytib o'tish joizki, ushbu masalani qadimgi va o'rta asrlar faylasuflari ham ko'rib chiqishgan edi. Bedilning bu qarashlariga Sharq peripatetiklari va so'fiylar orqali kelgan Arastuning shakl va materiya haqidagi g'oyasining ma'lum bir darajasidagi ta'sirini ko'rish mumkin. “Ibn Sino shaklni mazmun deb hisoblagan. Ushbu

¹² Davronov Z. Falsafa. O'quv qo'llanma – Toshkent, Iqtisod – Moliya, 2006. – B.143

mazmun abadiy bo'lgan birlamchi materiya bilan sintezlashuvida jismga ma'lum bir shakl beradi. "Shakl" deganda Ibn Sino jismning uni aniq narsaga aylantiradigan maxsus xususiyatini nazarda tutgan. Masalan, shakl borliqning noorganik, o'simlik, hayvonot va inson shakllarini vujudga keltiradi. Shaklning aynan shunday tushunilishidan kelib chiqib, faylasuf, uni jismni aniq narsaga aylantiradigan mazmun deb ta'riflagan¹³.

Bedil, moddiy dunyo va aniq narsalarning aynan namoyon bo'lishida, shakl va mazmun dialektikasini oydinlashtirish orqali narsalar dunyosining mohiyatini ochib beradi. Barcha narsalar zaruriyat yuzasidan vujudga keladi. «Barcha ashyolardan ularning bo'lakchalari o'z g'arganligi sababli, yangi narsa kelib chiqadi, bu ajoyib sirli hodisa zaruriyat yuzasidan ro'y beradi, bu zaruriyat ashyolarining o'zida va ular orasidagi o'zaro munosabatlarda mavjud bo'ladi. Masalan, yog' pilik, va olovning bir-biriga qo'shilishidan zaruriy ravishda yorug'lik kelib chiqadi"¹⁴. Darhaqiqat, dunyo o'zgarishda va doimiy harakatdadir.

Tadqiqotda Hind falsafasi bilan yaxshi tanish bo'lgan Bedil qarashlari, ularning ayrim tushunchalari qarashlarga hamohang ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, to'rt unsurlar nazariyasi, so'fiylar, peripatetiklar orasida keng tarqalgan edi. "Ibn Sino talqinida ushbu to'rt unsurlar, borliqning poydevori toshidir va to'rt an'anaviy unsurlar, havo, suv, olov, yer shakllarida mavjud"¹⁵. Bedil ushbu fikrni izchillik bilan rivojlantiradi. Bu nazariya esa oriylarning Hindistonga kirishi davridan boshlab, diniy-falsafiy ta'limotlarning, shu jumladan tasavvufning Hind tariqatlarida ko'rib chiqish obyekti bo'lganligi bilan bog'liq. Mazkur nazariya Hindistonda chuqurlashtirilgan va shu jarayonda to'rt unsurlar haqidagi avvalgi konsepsiyalar ham ko'rib chiqilgan.

Dissertant fikricha, Bedilning materiya va shakl haqidagi qarashlariga Sharq peripatetiklarining g'oyalari ta'sir qilgan. Bedil materiya va ruhning o'zaro munosabati haqidagi ba'zi masalalarni sharhlar ekan, u olamni ruh va tananing chambarchas bog'liqlikda ko'rib chiqadi, uning ontologik konsepsiyasida ruh va tana tushunchalari materiya va shakl tushunchalariga to'g'ri keladi. U olamda harakat va o'zgarish qanday yuz berishi, hodisalar qanday qilib o'zining qarama-qarshiligiga aylanishi hamda Osmon va Yer qarama-qarshiligi qanday amalga oshishini ta'riflaydi. Barcha o'zgarishlar o'zining tabiiy qobiliyatlariga mos ravishda amalga oshishi va shunga binoan mukammallik zinapoyasida o'z o'rnini egallashini ko'rib chiqadi, Bedil shuni ta'kidlaydiki, bizning tasavvurlarimiz va mulohazalarimiz ularning shakllaridan qat'iy nazar, shartlidir. (Tafakkur ojizu, andisha, orist, chi taxkiku chi taqlid etiborist)¹⁶.

Tadqiqotda Bedil inson mohiyatini uning real borlig'i orqali tushunishga uringani asoslab berilgan. Uning tasavvurida real borliq illohiy xarakterga ega. Faylasuf nazarda Xudo shunaqa asoski, unga dunyoning barcha hodisalariga,

